

## Ustozlarga ming ta'zim

Ustoz deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat - ehtirom va cheksiz minnatdorlik tuyg'ulari, shu bilan birga, hech qanday boylik bilan o'lchab va ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi. Ustozlarimiz o'giti, keksalarimiz pand-nasihatlariga amal qilib borsak, aslo kam bo'lmaymiz. Bu bilan ustoz va murabbiylarimiz oldidagi ilk burchimizni ado etgan bo'lamiz. Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultet dekani Sh. Narbaev, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, fakultet Yoshlar ittifoqi yetakchisi Sh.Abduqodirov hamda fakultetimizning iqtidorli tashabbuskor talabalari bilan erta tongdan fakultet binosi kirish qismida barcha ustozlarni ko'tarinki ruhda kutib olishdi.



Inson avvalo, unga bilim va ma'rifat dunyosi sari yo'l ochib bergen, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo'lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko'nglida hamisha minnatdorlik tuyg'usi bilan yashaydi.

Xalqimiz ustozlarni e'zozlab:

"Ustozning umri - mangu, chunki shogirdlar umri unga ulanadi", - deydi. Ha, juda ham to'g'ri fikr. Muallim - ustoz shunday mo'tabar zotki, uning nomi ham, umri ham hamisha boqiydir. Shuningdek fakultetimiz anjumanlar zalida "Ta'zim sizga, ustoz-u murabbiylar!" deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda barcha professor-o'qituvchilarni institutning Yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori R.Choriev, institutimiz rektorining tabriklari va esdalik sovg'alarini topshirishdi. Hamda homiy tashkilotlar aynan shu muassasani tugatgan, "O'zdaverloyiha" Respublika ilmiy loyihalash institutining bosh muhandisi Obid Davronnov, "Geoinformkadastr davlat unitar" korxonasi direktori Sh.Mayinov va "Geodeziya va kartografiya" Milliy markazi direktori O'tkir Imomqulovlar ustozlarni tabrikldi.



Ustoz va murabbiy! Biz barchamiz yoshimiz, kasb-u korimizdan qat'iy nazar, bu so'zlarni eshitganimizda ko'nglimizdan faqat iliq fikrlar-u yorqin xotiralar o'tadi. Barcha ustoz va murabbiylarimizni fakultet jamoasi nomidan 1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimizdan muborakbos etamiz. Yosh avlodga ziyo nurini taratishdan aslo charchamangiz, deymiz.



**YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti**

**Institut Matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**